

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

Filologiya fanlari doktori, professor Hamidjon Homidiy tavalludining  
90 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan

# MUMTOZ ADABIYOTNING DOLZARB MUAMMOLARI

nomli respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami

Toshkent  
24-oktyabr, 2025-yil

## QO‘QON XONLIGIDA TUZILGAN BAYOZLARDA ERK-OZODLIK MAVZUSINING YORITILISHI

*Zilola SHUKUROVA,*

*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU dotsenti, PhD*

### **Annotatsiya**

*XIX asrning ikkinchi yarmi — XX asr boshida tuzilgan bayozlar nafaqat adabiy manba sifatida, balki shu davr ijtimoiy, siyosiy, madaniy-adabiy hayoti haqida qimmatli ma’lumot beruvchi yodgorlik sifatida ham ahamiyatlidir. Bayozlarda O‘rta Osiyoda yuz bergan siyosiy inqirozlar, mustamlaka oqibatlarini, xalq boshiga tushgan kulfatlar va asoratlari lirik she’rlarda aks ettirilgan bo‘lib, ularni o‘rganish jarayonida uch xonlikda yuz bergan voqealar, xonliklar tanazzulining asosiy sabablari badiiy tasvirlanganini ko‘rish mumkin. Xususan, butun dunyo taraqqiyot tomon intilayotgan davrda xonliklardagi qoloqlik, qo‘qon xoni Xudoyorxonning ayanchli taqdiri, insonlarning ilm-ma’rifatga emas, kayf-safoga o‘chligi natijasida butun o‘lkaning boshiga mustamlaka balosi yopirilgani haqidagi lirik she’rlarni uchratish mumkin. Bayozlarni o‘rganish orqali xalqni zillat botqog‘idan qutqarishga bel bog‘lagan shoirlar va kotiblarning xalqni “uyg‘otish” uchun nafaqat she’rlar bilan, balki qahramonlik ruhida yozilgan nasriy asarlar va jangnoma dostonlar vositasida harakat qilgani haqidagi tahliliy ma’lumotlar beriladi.*

**Kalit so‘zlar:** *bayoz, adabiy manba, qo‘lyozma, mustamlaka, lirik she’rlar, jangnoma dostonlar, shoirlar, kotiblar*

XIX asrning ikkinchi yarmi xonliklar tarixida juda chigal va siyosiy beqarorlik boshlangan bir davr edi. Avvalo, toj-u taxt istagida mukkasidan ketgan shahzodalarning tinimsiz urushi, bir-biriga uyushtirgan fitnalari sababli xonliklarning ichdan yemirilishi, ikkinchi tomondan, mustam-

lakachilarning o'lkaga bostirib kelib, ko'plab qirg'inlarni amalga oshirishi xalqni nihoyatda tushkunlikka tushirdi. Ichki beqarorlik, xonliklar o'rtasidagi ixtilof tashqi dushmanlarning yurtga bostirib kelib, uni egallashida qulay vaziyat yaratib bergan edi.

Ayniqsa, bayozlar tarkibidan o'rin olgan mustamlakachilarning bosqini, yurt talofatlari va millat qayg'usi aks etgan she'rlar bu davr xonliklardagi siyosiy ahvolning bor dahshati bilan tasavvur qilish imkonini beradi. Masalan: taxminan 1323/1904-yil Farg'onada tuzilgan 2509 raqamli qo'lyozma bayoz [bayoz 2509] mustamlaka zulmining achchiq voqealari haqida xabar beruvchi nodir manba sifatida qimmatlidir. Bayozning ilk sahifasida "Ushbu kitob yozdim man kim mullo mirzo Mahmud domullo sohib Kamol Mirzo o'g'li mazkur bayoz ichinda har xil baytlar bor ekanin....." deb yozilgan. Kitobda ortiqcha bezaklar mavjud emas. G'azallar to'rtlik shaklida 4 qator qilib ikki ustunda yozilgan. Ikkinchi sahifasida esa qalam bilan kirill yozuvida "Господину мулла Мирза Махмуд мулла сохиби Камалову Гарауч Чуст Ферганский области Наманганский уезд 1918 года 28 января" qaydlari bitilgan. Ana shu qaydlar bayozning XX asr boshida Farg'onada yozilganligini tasdiqlaydi.

Bayozda Amiriy, Huvaydo, Jomiy, Shams Tabriziy, Hisrav, Navoiy, Muqimiy Amir, Fuzuliy, Xasta dil, G'ulomiy, Hoziq, Abdiy, Haziniy, Mashrab, Vahshiy, Sayidxon, Zavqiy, Marhabo va boshqa shoirlarning g'azal va muxammaslari kiritilgan. Ushbu shoirlarning ijodi ichida turli mavzudagi g'azallar bilan birga tashqi dushmanlarning ayovsiz qirg'inlari va chor mustamlakasi asoratlari haqida dardli, mahzun she'rlarni uchratish mumkin. Bunday ruhdagi she'rlar har bir xonlikda tuzilgan bayozlarda uchraydi. Biz tahlil qilayotgan 2509 raqamli bayoz Qo'qon xonligida tuzilgani sababli shu hududning qonli voqealari tasvirlangan she'rlarni tahlil qilamiz.

Rus qo'shinlarining O'rta Osiyoni bosib olish rejasiga ko'ra XIX asrning 50-60-yillarida Qo'qon xonligiga hujum qilishadi. Bir-biridan dahshatli, qonli janglar uyushtirishi natijasida qisqa muddatda xonlikni

o‘z nazoratiga olib, uni rasman 1876-yil 19-fevralda tugatadi. Xudoyorxon va rus hukumati o‘rtasida tuzilgan shartnoma ruslarning foydasiga xizmat qilib, tomonlarning manfaati teng ko‘rilmagan. Xudoyorxon esa rus hukumati bilan munosabati yomonlashmasligi uchun ularning har qanday talabiga rozi bo‘lgan. Bu esa xonlik hududining qisqarishiga, soliqlarning oshirilishiga, xalq o‘rtasida norozi kayfiyatni avj oldirib, qo‘zg‘olon ko‘tarilishiga sabab bo‘lgan. Bechora xalq bir tomondan tashqi dushmanlarga qarshi yurt ozodligi uchun qonli kurashda jon jahdi bilan jang qilsa, ikkinchi tomondan xonning adolatsiz siyosatidan norozi bo‘lib bosh ko‘tarar edi. Ozodlik uchun harakatlar o‘z yakunida qonli bosqin bilan xotima topar edi. Xudoyorxon o‘z xavfsizligi va manfaati yo‘lida xalqdan ayovsiz foydalanishi natijasida qo‘zg‘olon ko‘tarilib, xon taxtdan ag‘darildi. Shiddatli kechgan ushbu voqealar, eng avvalo, tarixchi, shoirlar va yozuvchilarning ijodida aks etib, tarixiy hujjatlar va bayozlarda o‘z ifodasini topgan. Quyida bayozning 70-sahifasida Xudoyorxon tilidan shunday muxammas beriladi:

بیانی خدایارخان

خدایارخان دیمشلار شهری فرغانم دین ایریلدیم  
کی تخت بخت قصرین تاج ئوخانمدین ایریلدیم  
جکر بندم این بیک سلطانمدین ایریلدیم  
کی نصرالدین اوزیمکه جانی جانمدین ایریلدیم  
خوصا نوری چشمی جانم اورمانمدین ایریلدیم  
باریب آفغان باغمغه من سوروردیم یخشی حالین  
کیریب اورکانج باغمغه من سالوردیم آق سرایمنی  
قویب من نچه آنکا قلی چوری  
بولوبمن آگاه مغرورکیم<sup>1</sup>  
یلیمغه بارغلی شهری نمکنانمدین ایریلدیم 70-bet<sup>2</sup>

Ushbu muxammasni to‘g‘ri tushunish uchun matn tarixiga to‘xtalish maqsadga muvofiq. Chunki “matn tarixi qo‘lyozma manbalar genealogiyasi-

<sup>1</sup> Ushbu ikki misraning yozuvlari o‘chib, bo‘yalib ketganligi sababli o‘qib bo‘lmadi.

<sup>2</sup> یلیمغه ushbu so‘z aslida ۱ یلیمغه deb yozilishi kerak. Bu o‘rinda kotib tomonida xato yozilgan.

ni tekshirishdan muallifning va manbani ko'chirgan kotibning dunyoqarashi va g'oyasini o'rganishgacha, asarning yuzaga kelishida muallif ijodiy niyatining ro'yobga chiqishidan uning yaratilishigacha u yoki bu darajada aloqador bo'lgan boshqa adabiy yodgorliklar bilan o'zaro bog'liq jihatlari tadqiqigacha bo'lgan barcha jarayonlarni o'z ichiga olishi"ni [Жабборов Н, 2019, 9] hisobga olganda matnni o'rganishda muhim va asosiy bosqich hisoblanadi. Ushbu lirik she'r tarixini o'rganish uning, asosan, Xudoyorxonning 1865-yildan keyingi hayotida ro'y bergan noxushliklar haqida so'z boradi. Chor hukumati 1864-yilda Chimkentni, 1865-yilda Toshkentni egallagach, butun e'tiborini Qo'qon xonligini to'liq egallashga qaratadi. Bu davrda esa Qo'qon xonligida taxt uchun talashishlar davom etayotgan edi. Ana shunday kurashlardan birida taxtidan ayrilgan Xudoyorxon 1865-yilda Buxoro xoni amir Muzaffar yordami bilan taxtni qayta egallaydi. Xonlikda ichki vaziyat uning qo'l ostiga o'tgan bo'lsa-da, tashqi tomondan chor mustamlakasi Qo'qon xonligini egalash vajidan xonga bosim o'tkazishi natijasida 1868-yilda Xudoyorxon Fon Kaufman bilan ruslarning manfaatiga xizmat qiladigan shartnoma imzolaydi. Bu ham yetmagandek 1870-yillarda Xudoyorxon o'zi uchun O'rda qurish haqidagi farmonni imzolaydi. Unga ko'ra O'rdani qurishda xonlikdagi barcha ishga yaroqli erkaklar jalb qilinib, ularga haq to'lanmasdan hashar yo'li bilan bitkazish ko'zda tutilgan edi. Xonlik taqdiri qil ustida turgan bir paytda Xudoyorxonning bunday farmon chiqarishi xalqning noroziligini yanada oshirdi. O'rda 1873-yili qurib bitkaziladi. Biroq xalqning xon siyosatiga nisbatan noroziligi saqlanib qolgan edi. Bu esa soxta Po'latxon boshchiligidagi xalq qo'zg'oloni ko'tarilishiga sabab bo'ladi. Mazkur qo'zg'olonga xonning o'g'illari Nasriddinbek va Muhammad Aminbek ham qo'shilgan edi. Qo'zg'olonchilar Xudoyorxonni taxtdan ag'darib, uning o'rniga xonning o'g'li Nasriddinbekni taxtga o'tqizadi. Qo'zg'olon sababli Xudoyorxon ikki xotini, 3 ta o'g'li: O'rmonbek, Fansurullohbek va Ibn Yaminbek hamda xos soqchilari bilan Xo'jandga qochadi.

Xo'jandga yetib kelgach, ketma-ket noxush xabarlar eshitadi. Avvalambor, o'zining o'rniga o'g'li Nasriddinbek taxtga o'tirganini yurtini tashlab

ketganidan soʻng bir hafta oʻtib xabar topadi. Shunday boʻlsa-da, oʻgʻliga tabrik xatini yoʻllab, unga taxt boshqarishdagi baʼzi tavsiyalarini beradi. Ikkinchidan, Xoʻjandga kelganidan bir hafta oʻtib, Fon Kaufman xonni Xoʻjanddan Toshkentga chaqirtirib oladi. U yerda bir muddat yashagach, Xudoyorxonning Toshkentda yashashi ruslar uchun muammo keltirib chiqarishi mumkinligini oʻylab, uni Sankt-Peterburgga imperator chaqirdi, degan bahona bilan Orenburgga surgun qilib, ikki yil uy qamogʻida olib oʻtiradi. Bandilikda oʻtirib bezor boʻlgan Xudoyorxon amallab qochib haj safari uchun Makkaga joʻnaydi. U yerdan qaytishda koʻp sarsonlikdan soʻng Afgʻonistonning Mozori Sharifida kasallikdan vafot etadi. Xudoyorxonning shohlik davri va hayotining soʻnggi yillarida yuz bergan voqealar Mirzaolim Mushrifning “Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin” asarida ham atroflicha yoritilgan” [Мирзаолим Мушриф, 1995, 66-90].

Xudoyorxon tilidan keltirilgan yuqoridagi muxammas uning surgunlikda yurgan kezarida shoirlar tomonidan bitilgan. Unda xonning toj-u taxti, mol-u davlati hamda oʻgʻillaridan ayrilgani haqidagi afsus-nadomat bilan aytilgan kechinmalari bilan tanishish mumkin. Ushbu dardli muxammasda ifodalangan xonning ayanchli taqdiriga sabab boʻlgan ikki omilni koʻrish mumkin. Birinchisi, xonliklar oʻrtasidagi toj-u taxt talashishlar, yurt boshqaruvidagi adolatsizliklar saroy ichki fitnalarining avj olishi sabab boʻlgan. Bu esa, oʻz navbatida, mamlakatni ichdan yemirilishiga olib kelgan. Ikkinchi tomondan esa ruslarning Turkistonga bostirib kelishi Xudoyorxonning hayotida ham koʻplab alamli kunlarni boshiga soldi. Biroq aytish kerakki, nafaqat Xudoyorxon, balki butun xalq boshiga kelgan qora kunlarga sabab aslida ichki siyosatning nobopligi deb xulosa qilinsa, adolatli boʻlardi. Xonlarning ochkoʻzligi, kalondimogʻligi, mansabparastligi oqibatida butun millat buning badalini toʻladi. “N.I.Veselovskiy Oʻrta Osiyo tarixi va unda yozib qoldirilgan manbalarni tarixiy aspektda oʻrganar ekan, 1891-yilda N.F.Katanov tomonidan yozib olingan (tarjimasi) “Xudoyorxon qoʻshigʻi” va “Ruslarning kirib kelishi” (Ushbu sheʼr ham tarixiylik jihatidan eʼtiborli boʻlib, unda Alimqulni oʻzining askarlari otib oʻldirgani haqida gap boradi”

[Лунин Б, 1979, 105]) nomli ikki she‘rni nashr qiladi. Katanov uni samarqandlik Amirxon tilidan o‘zbek tilida yozib olgan. “Xudoyorxon qo‘shig‘i”-da Xudoyorxon tilidan ushbu misralar keladi:

*Menda qul va joriyalar ko‘p edi,  
Shuningdek bir nechta go‘zallar.  
Men ularga qattiq mahliyo bo‘ldim,  
Va Allohni unutdim.*

E‘tibor berilsa, yuqorida 2509 raqamli bayozda berilgan muxammas bilan ushbu samarqandlik Amirxon tilidan aytilgan “Xudoyorxon qo‘shig‘i” mazmunan bir voqealarga ishora qilyapti. Har ikkisida ham Xudoyorxonning farog‘atda o‘tgan umri haqidagi xotiralari va xatolari tasvirlangan. Demak, Xudoyorxonning ayanchli taqdiri butun xonlik emas, balki qo‘shni xonliklarda ham aks sado bergan, ta’sirlantirgan. Buning natijasida shu mavzuda ko‘plab she‘rlar bitilgan.

Albatta, Xudoyorxon hayoti va faoliyati mavzusi shoirlarning nazari-dan chetda qolmaydi. Xususan, “Xudoyorxon mavzusini Zoriy birinchilardan bo‘lib qalamga oldi va shu ruhdagi qator she‘rlarning maydonga kelishiga asos soldi. N.Ostroumovning bergan izohiga ko‘ra Zoriyning shu mazmundagi muxammasi xalq tomonidan ijro etilgan. Davr adabiyotida yaratilgan bunday turkumlar shoirlarning ijodiy hamkorligidan dalolat beradi. Zoriy, Furqat, Zavqiy, Kotib, Muhayyir kabilarning xonning ayanchli taqdiri haqidagi muxammaslari ularning hamfikir, maslakdoshligini ko‘rsatadi” [Абдуллаева Д, 2005, 75].

Umuman olganda, rus mustamlakasiga qarshi kurash va ular tomonidan yetkazilgan vayronagarchilik hamda qirg‘inlar haqida tarixiy manbalarda batafsil berilgani holda shoir, yozuvchilar bu voqealarni badiiy asarlarida, lirik she‘rlarida aks ettirishgan. Shoirlar she‘rlarida boshlariga kelgan bu balog‘a, avvalo, o‘zlarining ilmsizliklari, aysh-ishratga berilganliklarini asos qilib ko‘rsatishadi. Shu bilan birga ijodkorlar tashqi dushmanlarga oh-voh qilib qarab o‘tirish vaqti emasligini anglab, chet el bosqinchilariga qarshi kurash g‘oyasini targ‘ib qiluvchi jangnomalar yaratib, xalqni kurashga, ona vatanni

himoya qilishga chaqirgan. Inson ruhiyatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiluvchi lirik she'r va jangnomalar shoir maqsadini badiiy aks ettirib, xalqning bosqinchilarga qarshi kurashish shijoatini oshirgan. Beqaror siyosat va mustamlaka bu davrda xonliklar bayozchiligining muhim mavzularidan bo'lishi, adabiy maktab vakillari bir maqsad ostida birlashishi ana shu ezgu maqsadni amalga oshirishda esa bayozlar asosiy vosita bo'lib xizmat qilgan.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abu Rayhon Beruniy nomidagi qo'lyozmalar instituti H.Sulaymon fondi 2509 raqamli qo'lyozma bayoz.
2. Abu Rayhon Beruniy nomidagi qo'lyozmalar instituti Asosiy fond 1132 raqamli qo'lyozma bayoz.
3. Abu Rayhon Beruniy nomidagi qo'lyozmalar instituti H.Sulaymon fondi 3278 raqamli qo'lyozma bayoz.
4. Мирзаолим Мушриф. Ансоб ус-салотин ва таворих ул-хавоқин. Нашрга тайёрловчи Матфозиев А., Усмонова М. — Т.: Фафур Фулом, 1995.
5. Муҳаммад Ризо Огаҳий девон (Нашрга тайёрловчи С.Рафиддинов). — Т.: Adabiyot, 2023.
6. Абдуллаева Д. Усмонхўжа Зорий ҳаёти ва ижоди. — Т.: Янги аср авлоди, 2005.
7. Жабборов Н. Ўзбек матншунослиги ва унда матн танқиди, илмий-танқидий матн истилоҳларининг ўрни // Ўзбек мумтоз адабиётини ўрганишнинг назарий ва манбавий асослари. Республика илмий-амалий конференциялари. — Т.: Mumtoz so'z, 2019.
8. Жабборов Н. Бадий матн таҳрирининг хос хусусиятлари // Ўзбек адабиётшунослигида талқин ва таҳлил муаммолари. Илмий-назарий анжуман материаллари. — Т.: Mumtoz so'z, 2014.
9. Жабборов Н. Фурқатнинг хориждаги ҳаёти ва ижодий мероси: манбалари, матний тадқиқи, поэтикаси. Фил. фан. док. дисс.... — Т., 2004.

10. Жўрабоев О. Ҳазиний Хўқандий ҳаёти ва ижодий мероси. Фил. фан. ном....дисс. автореф. — Т., 2003.
11. Лунин Б. Средняя Азия в научном наследии отечественного востоковедения. — Т.: Фан, 1979.
12. Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У., Ризаев Ш., Аҳмедов С. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. — Т.: Маънавият, 2004.
13. Саидов Ш. Россиянинг Хива хонлигига қарши ҳаракатлари ва Хитой // “Uzbekistan-China: development of cultural, historical, scientific and economic relations” . 2022.
14. Шодмонов Н. Чекка ҳудудларда яратилган адабий манбаларни ўрганиш муаммолари // Ўзбек филологиясида матншунослик ва манбашунослик муаммолари. III Республика илмий-амалий анжуман материаллари. — Наманган: 2020.
15. Shukurova Z. Antologiya genezisi va klassifikatsiyasi. Eurasian journal of academic research. Innovative Academy Research Support Center UIF = 8.1 | SJIF = 5.68
16. Shukurova Z. History of origin and factors of development of bayoz. Innovative Development in Educational Activities ISSN: 2181-3523 VOLUME 2 | ISSUE 5 | 2023 .

## **BERTELS “LAYLI VA MAJNUN” HAQIDA**

*Iroda ISHONXANOVA,*

*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU  
dotsenti, PhD*

### **Annotatsiya**

*Atoqli sharqshunos olim Yevgeniy Bertels ilmiy faoliyati e’tiborga molik tadqiqotlardan hisoblanadi. XX asrning faol navoiyshunoslaridan hisoblangan Bertels Alisher Navoiy asarlarining bir qanchasi ustida ish olib borgan. Shunday asarlardan biri “Layli va Majnun” dostonidir. Maqolada ushbu doston borasidagi olimning mulohazalari bayon qilinadi.*

Sohiba UMAROVA. Hamidjon Homidiy ilmiy-tadqiqot mezonlari	85
Anora TEMIROVA. Navoiy ijodidagi xalqonalik Mallayev talqinida	89
Rohatoy SHERALIYEVA. Hamidjon Homidiy zamondoshlari nigohida	94
Fotima DAVLATOVA. Hamidjon Homidiy adabiy merosi – soʻnmas shamchiroq	101
Mahliyo TOʻRAQULOVA. “Namangan adiblari” kitobining ilmiy-maʼrifiy qimmatini	106
Muhabbat YUSUFALIYEVA. Qardosh xalqlar adabiyotining mohir tarjimoni	111
<b>II SHOʻBA. “AVESTO” VA “SHOHNOMA”NING OʻZBEK ADABIYOTIGA TAʼSIRI</b>	
Шодмон ВОҶИДОВ, Гулшарй ШАРИФОВА. Внемли наставлению Хафиза, Хожа, и иди – твори добро...	118
Tohir SHERMURODOV. “Avesto” – insoniy ijod mahsuli	130
Ozoda TOJIBOYEVA. “Shohnomayi turkiy” manbalari	144
Matluba JABBOROVA. “Avesto”da anʼnaviy obraz talqini	151
Sevinch YOQUBOVA. Anʼnaviy timsol va poetik vositalarning tarixiy-adabiy asoslari	162
<b>III SHOʻBA. OʻZBEK MUMTOZ ADABIYOTINING MANBALARI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI</b>	
Margʻuba ABDULLAYEVA. “Maqsad ul-atvor” dostoni gʻoyaviy-badiiy xususiyatlari	170
Quldosh PARDAYEV. XIX asr oxiri – XX asr boshlari Qoʻqon adabiy muhiti va Muqimiy ijodini oʻrganishning metodologik asoslari	177
Hoshim AHMEDOV. “Boburnoma”dagi baʼzi tafsilotlar haqida	188
Zilola SHUKUROVA. Qoʻqon xonligida tuzilgan bayozlarda erk-ozodlik mavzusining yoritilishi	194